

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**MELIYEVA XUSNIDA XAFIZALIYEVNA**

**MOBIL TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA BO‘LAJAK  
BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARINI AXBOROT  
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**13.00.06 – Raqamli ta’lim nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Meliyeva Xusnida Xafizaliyevna**

Mobil texnologiyalar vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini  
axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi.....5

**Meliyeva Xusnida Xafizaliyevna**

Методика развития информационной компетентности будущих  
учителей начальных классов посредством мобильных технологий....22

**Meliyeva Xusnida Xafizaliyevna**

A methodology for developing information literacy skills in prospective  
primary school teachers using mobile technologies.....42

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....46

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**MELIYEVA XUSNIDA XAFIZALIYEVNA**

**MOBIL TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA BO‘LAJAK  
BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARINI AXBOROT  
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**13.00.06 – Raqamli ta’lim nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Ped8459 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertasiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz) hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portali [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ro‘ziqulova Nigora Shuxratovna**  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori(PhD), dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Karlibaeva Guljaxon Yermekbaevna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Jo‘rayev Vohid Tojimamatovich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Guliston davlat universiteti**

Dissertasiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100185, Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.:(99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-76-51, e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz)).

Dissertasiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (UDK: 372.3:681.142.37 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.:(99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-76-51.

Dissertasiya avtoreferati 2025 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kun tarqatildi.

2025 yil“\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi

**N.A.Muslimov**  
ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor,

**R.G.Isyanov**  
ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi, p.f.n., dotsent

**M.E.Mamarajabov**  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, p.f.n., dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon ta'lim tizimida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini axborot kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishning samarali mexanizmlari ta'lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. Janubiy Koreyada o'tkazilgan Xalqaro ta'lim forumida 2030 yilgacha qabul qilingan "Incheon declaration"da "ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish", fan va ta'lim yutuqlarini o'quv materiallari mazmuniga singdirib borishga oid tendensiyalarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahonda ta'lim va ilmiy tadqiqot masalalarida, axborot texnologiyalarini joriy etishning didaktik asoslarini takomillashtirish bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy bilish faoliyatining reproduktiv va produktiv darajalarni prognozlash va modellashtirish, mustaqil fikrlash, atrofdagi voqelikka ongli munosabatda bo'lish, daxldorlik va ijtimoiy faollik sifatlarini rivojlantirish, dars jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning moddiy-texnika bazasini takomillashtirish, boshlang'ich ta'limning yuqori sifatini ta'minlash, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha ham ilmiy tadqiqotlarga e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim sifati strategiyalarini modellashtirish, prognozlashtirish ta'lim sifatini oshirish, kadrlar raqobatbardoshligini ta'minlashning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Ta'lim jarayonida natijaviylikka erishish bo'yicha o'quvchilarning aqliy va ijodiy tafakkurni o'stirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish", "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan muhim vazifalar etib belgilangan. Bu esa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini axborot kompetentligini rivojlantirishda axborot ta'lim resurslaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-maydagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston — 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-son "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi PQ-357-son "2022-2023 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 7-maydagi 288-son "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi ma'lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning 1. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Axborot kommunikatsion texnologiyalardan ta’lim jarayonlarda foydalanish, elektron muhitda axborot almashishning nazariy va metodik jihatlari, ta’limda kompetensiyaviy yondashuv, kompetensiyalarning shakllanganligini tashxislash va korreksiyalash borasida M.E.Mamarajabov, I.A.Eshmatov, U.U.Jumanazarov, G‘.S.Mamatov, U.X.Mingboyev, J.S.Otepbergenov, L.M.Umarov, U.N.Taylakov, M.J.Saidova, B.M.Suropov, N.SH.Ro‘ziqulova, J.O.Xakimov, I.E.Shreynazarov, A.A.Abdugodirov, U.SH.Begimqulov, N.A.Muslimov, A.K.Raximov, F.M.Zakirova, Y.U.Asadov tadqiqotlar olib borishgan.

MDH mamlakatlarida ta’limda kompetentli yondashuv va axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish masalalari B.A.Адо́ль, В.Л.Акуленко, С.А.Бешенков, Ю.К.Бабанский, В.И.Байденко, Я.Л.Врагменко, А.А.Вербицкий, И.А.Зимняя, А.В.Молокова, В.М.Монахов, А.М.Навиков, Л.А.Сергева, О.В.Урсова ilmiy izlanishlarida o‘z ifodasini topgan.

Xorijiy davlatlarda K.Appleton, V.L.Akerson, C.I.Brainerd, K.Grey, H.Garfinkel, O.Petter, J.Raven, H.William va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida axborot kompetentligini rivojlantirishning metodik ta’minotini yaratish masalalariga oid tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining “Pedagogik yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha ilg‘or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta’lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish” nomli ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan. (2020-2024 yy).

**Tadqiqotning maqsadi** mobil texnologiyalar vositasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini axborot kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

mobil texnologiyalar vositasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini axborot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

mobil texnologiyalar vositasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini axborot kompetentligini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

mobil texnologiyalar vositasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

mobil texnologiyalar vositasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini axborot kompetentligini rivojlantirish samaradorligini aniqlashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida mobil texnologiyalar vositasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini axborot kompetentligini rivojlantirish jarayoni bo‘lib, tajriba-sinov ishlarida Andijon davlat pedagogika instituti, Qo‘qon davlat pedagogika instituti, Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchilari va 318 nafar talabasi ishtirok etdi.

**Tadqiqotning predmetini** mobil texnologiyalar vositasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini axborot kompetentligini rivojlantirishning shakl, metod va vositalarini tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida uning maqsad va vazifalariga qaratilgan kuzatuv, qiyosiy tahlil, tajriba-sinov ishi, medallashtirish, pedagogik va metodik adabiyotlar tahlili, so‘rovnoma, test, suhbat, natijalarni matematik-statik qayta ishlash va tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

mobil texnologiyalar vositasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini axborot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari innovatsion ta‘lim shakllarining didaktik tamoyillari va metodologik yondashuvlarning ta‘limiy maqsadlarga yo‘naltirilganligini ta‘minlash, shaxsiy maqsad va tajribalarini uyg‘unlashtirish hamda ta‘limni soddalashtirish va modernizatsiya qilish asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini axborot kompetentligini rivojlantirish modeli amaliy faoliyat tamoyillari va kontekstual yondashuvlarning maqsad, mazmun va natija komponentlarni uzviylashtirish, hodisa yoki jarayon haqidagi bilimlarni tizimlashtirish, kasbiy muammolarni kasbiy va o‘quv-kasbiy faoliyat turlariga yo‘naltirish hamda ta‘lim subektlari va hamkor tashkilotlarining o‘zaro integratsion ta‘sirini mobil texnologiyalarni yaratishning kontekstual yondashuvlari va didaktik talablariga transformatsiyalash asosida takomillashtirilgan;

mobil texnologiyalar vositasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi trenajyorlar, mozaykalar, o‘yinlar, konstruktorlar vositasida matematik axborotlarni tahlil qilish, sintezlash va tanqidiy baholash, qayta ishlash, vizualizatsiya qilish, axborot modellarini amalga oshirish va uzatish jarayonlarini grafik organayzer, muammoli topshiriq va “savol-javob” jadvali kabi metodikalarga ustuvorlik berish hamda interaktivlikni ta‘minlashga qaratilgan texnologiyalarni amalda qo‘llashga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

mobil texnologiyalar vositasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini axborot kompetentligini rivojlantirish samaradorligi baholashning motivatsion-qiyamatli, kognitiv-amaliy va reflektiv-loyihaviy mezonlarini ijodiy faol, ijro-faol, nisbatan faol baholash darajalariga proporsional moslashtirish hamda ta‘limiy elektron platforma resurslaridan intensiv foydalanishda maqsadli natijalarga erishish muvofiqligini barqaror ta‘minlash asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta‘lim muhitida o‘quvchilarni faol va algoritmik axborot almashinish faoliyatiga bosqichma-bosqich yo‘naltirish bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida 60110400 – “Boshlang‘ich talim”

yoʻnalishi uchun “Высшая математика” oʻquv qoʻllanma (Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim fan va innovatsiyalar vazirligining 2023- yil 29-maydagi 232- buyruq asosida berilgan 232-866 son guvohnomasi) yaratilgan;

mobil texnologiyalar vositasida boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini axborot kompetentligini rivojlantirish mazmunini hisobga olgan holda relaksion, iyerarxik maʼlumotlarni elektron taqdim etuvchi “Математика и методика ее преподавания” fanidan taʼlimiy elektron platforma (Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturning rasmiy roʻyxatdan oʻtkazilganligi toʻgʻrisidagi guvohnoma: Oʻzbekiston Respublikasi adliya vazirligining 2023-yil 7-apreldagi № DGU 24956 sonli) yaratilgan;

mobil texnologiyalar vositasida boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini axborot kompetentligini rivojlantiruvchi metodik taʼminot (Fan dasturi (sillabus)) va mobil texnologiyalarni qoʻllash va foydalanishga oid uslubiy metodik majmua yaratilgan;

mobil texnologiyalar vositasida boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini axborot kompetentligini rivojlantirishni baholashning mezonlari va darajalari fanlarni mazmunini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish mazmuniga singdirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari toʻplamlari, OAK tavsiya etgan jurnallar hamda xorijiy ilmiy nashrlarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan darsliklar, qoʻllanma va u haqidagi taqrizlar, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan, takomillashtirilgan metodik tizim va tavsiyalardan boshlangʻich taʼlimda matematika fanini oʻqitishda foydalanish bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya xulosalari va natijalarining boshlangʻich taʼlimda qoʻllanilayotgani hamda takomillashtirilgan metodik tizim va darsliklardan yangi avlod oʻquv adabiyotlarini yaratishda foydalanilgani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi** mobil texnologiyalar vositasida boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish asosida:

mobil texnologiyalar vositasida boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini axborot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari innovatsion taʼlim shakllarining didaktik tamoyillari va metodologik yondashuvlarning taʼlimiy maqsadlarga yoʻnaltirilganligini taʼminlash, shaxsiy maqsad va tajribalarini uygʻunlashtirish hamda taʼlimni soddalashtirish va modernizatsiya qilish asosida takomillashtirishga oid takliflar “Oliy matematika (rus tilida)” oʻquv qoʻllanmasi mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7581/04 raqamli maʼlumotnomasi). Natijada, talabalarning fanga oid axborotlarni oʻzlashtirish darajalarini aniqlash imkonini bergan;

boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini axborot kompetentligini rivojlantirish modeli amaliy faoliyat tamoyillari va kontekstual yondashuvlarning maqsad, mazmun va natija komponentlarni uzviylashtirish, hodisa yoki jarayon

haqidagi bilimlarni tizimlashtirish, kasbiy muammolarni kasbiy va o'quv-kasbiy faoliyat turlariga yo'naltirish hamda ta'lim subyektlari va hamkor tashkilotlarining o'zaro integratsion ta'sirini mobil texnologiyalarni yaratishning kontekstual yondashuvlari va didaktik talablariga transformatsiyalash asosida takomillashtirishga oid takliflar "Oliy matematika (rus tilida)" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7581/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining matematika faning mazmuni va talabalar tomonidan o'zlashtirish imkoniyatlari hamda fanni o'qitish samaradorligi oshirilgan;

mobil texnologiyalar vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi trenajyorlar, mozaykalar, o'yinlar, konstruktorlar vositasida matematik axborotlarni tahlil qilish, sintezlash va tanqidiy baholash, qayta ishlash, vizualizatsiya qilish, axborot modellarini amalga oshirish va uzatish jarayonlarini grafik organayzer, muammoli topshiriq va "savol-javob" jadvali kabi metodikalarga ustuvorlik berish hamda interaktivlikni ta'minlashga qaratilgan texnologiyalarni amalda qo'llashga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Oliy matematika (rus tilida)" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7581/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida "Oliy matematika" fanini o'qitishning zamonaviy o'quv-metodik ta'minotini va didaktik imkoniyatlari takomillashtirilgan;

mobil texnologiyalar vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini axborot kompetentligini rivojlantirish samaradorligi baholashning motivatsion-qiyamatli, kognitiv-amaliy va reflektiv-loyihaviy mezonlarini ijodiy faol, ijro-faol, nisbatan faol baholash darajalariga proporsional moslashtirish hamda ta'limiy elektron platforma resurslaridan intensiv foydalanishda maqsadli natijalarga erishish muvofiqligini barqaror ta'minlash asosida takomillashtirishga oid takliflar "Oliy matematika (rus tilida)" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7581/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natija, mobil texnologiyalar vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot kompetentligi rivojlantirilgan.

**Tadqiqot natijalarining apobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14ta ilmiy-uslubiy ish, shu jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shundan 4 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzulishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi tarkibi kirish, 3ta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 134 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan; fan va texnologiyalarning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi

ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan; tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan; tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan; olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan; tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilgani, e'lon qilingani, dissertasiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mobil texnologiyalar vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini axborot kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini axborot kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy pedagogik zaruriyat sifatida, axborot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari, talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar hamda muammoning nazariy va amaliyotdagi holati bayon etilgan.

Mobil texnologiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish hozirda dolzarb ekanligi xech kimga sir emas. Axborotlashgan jamiyat madaniyatidagi tub o'zgarishlar, axborotga strategik resurs statusini (xuquqini) berilishi, shaxsning axborotlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish muammosini oldingi o'ringa olib chiqadi. Axborotlashgan jamiyat bilan bog'liq kompetensiyalar, axborot kompetensiyalari nomini oldi. Mazkur kompetensiyaga ega bo'lish, insonni turli manbalardan keluvchi, turli mazmun-ma'noga ega va turli shaklda taqdim etiladigan axborotlar bilan ishlash ko'nikmasini ta'minlaydi. Axborotlarni uzatish, saqlash, ishlash va boshqarish vositalarining rolini o'zgarishida kompyuter oldingi o'ringa chiqadi hamda u kasbiy kompetentlikni komponentlarini tashkil etuvchi sifatida axborot kommunikatsion texnologiyalar komponentlarini alohida o'rganish lozimligini tasdiqlaydi.

Global tarmoqdagi axborot resurslarining o'sib kelayotgan yosh avlod hayot tarzining shakllanishiga ta'sirini tahlil qilish natijasida shunday fikr kelib chiqmoqdaki, ularning eng ommabopi sanalgan internet hozirgi kunda ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos muhitiga aylanib qoldi. Bu esa, milliy tarmoqda yoshlarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning dunyoqarashi, qiziqishlaridan kelib chiqib, bevosita yosh avlod manfaatlari va muammolarini qamrab oluvchi, shu bilan birga, zamonaviy mavzulardan iborat axborot ta'lim resurslarini yaratish muhim ekanligini talab etmoqda. Shunday qilib, talabalarni faol ijtimoiy faoliyat ko'rsatishga tayyorlashda ta'lim muassasasining axborotlashgan muhitini yaratish va joriy qilish bugungi kunning talabidir.

Tadqiqot ishida kompetentli yondashuv oliy ta'lim muassasasida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim sharoitlarida rivojlantiriladigan bo'lajak o'qituvchi kasbiy kompetentligining tuzilmaviy komponentlarini aniqlash uchun qo'llaniladi. Bu, ayniqsa, talabalarda axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish muammosini hal etishda muhim ahamiyatga ega.

Dissertatsiyada mobil texnologiyalar vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini axborot kompetentligini rivojlantirishning quyidagi pedagogik imkoniyatlari mavjud: mobil texnologiyalardan foydalanish muammolari, axborot kompetentligini rivojlantirish vositalari, metodik tavsiyalar va elektron resurslar vositasida axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning xususiyatlari aniqlangan.

Shuningdek mobil texnologiyalar asosida bo'lajak o'qituvchilarning axborot kompetentligini oshirish uchun innovatsion, amaliy va nazariy jihatdan metodik yechimlar taklif etilgan. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini axborot kompetentligini rivojlantirish modeli: izchillilik va tizimlilik; butunlik (integrallashganlik); talabning shaxsiy faolligiga asoslanish kabi tamoyillarga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot kompetentligini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik, metodik va tashkiliy omillarning uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlar aniqlandi. Bularga: mobil qurilmalar va ilovalar bilan ta'minlangan zamonaviy ta'lim muhiti, o'quv dasturlariga moslashtirilgan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan mazmun, ko'p funksiyali mobil resurs vositasida raqamli savodxonlik darajasini oshirish, ularning kasbiy faoliyatida innovatsion yondashuvlarni qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganlar asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mobil texnologiyalar vositalari bilan ishlash kompetensiyasi axborotlashgan jamiyatda yosh maktab o'quvchilarining shaxsiyatini ijobiy tomonga rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, kasbiy faoliyatdan ko'zlangan asosiy maqsadlarga erishishda mobil texnologiyalar vositalaridan foydalanib, kasbiy topshiriqlarni bajarish uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qobiliyatlari va tayyorgarligini aks ettiruvchi shaxsiy xususiyat sifatida tushuniladi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalar vositalari bilan ishlash kompetensiyasi juda aniq va sodda tavsiflanishi mumkin bo'lib, bu esa boshlang'ich sinf o'qituvchi-mutaxassislarining axborot kommunikatsion texnologiyalar vositalari bilan ishlash bo'yicha kasbiy tayyorgarligini muvofiqlashtirish uchun zarur shart-sharoit yaratadi.

Kompetensiya bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisidan tashqari "munosabatli" jihatlarni ham o'z ichiga olishini hisobga olib, biz axborot kommunikatsion texnologiyalar vositalari bilan ishlash kompetensiyasining mohiyati va tuzilishini ko'rib chiqishning turli yondashuvlarini tahlil qiligan.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot kompetentligini rivojlantirish pedagogik imkoniyatlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunda raqamli resurslardan foydalanish, interaktiv ta'lim texnologiyalarini qo'llash, media savodxonlikni oshirish va axborotni vizualizatsiya qilish asosiy usullardir. Ushbu yondashuvlar o'qituvchining pedagogik mahoratini oshirib, zamonaviy ta'lim jarayoniga moslashishiga yordam beradi.

O'qituvchilar samarali kasbiy faoliyat ko'rsatishi uchun mobil texnologiyalardan samarali foydalanish uchun quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak: o'qitish va rivojlantirish uchun mobil texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlaridan xabardor bo'lish; turli fanlar bo'yicha o'qitish jarayonini tashkil etishda mobil texnologiyalarini qo'llash usullarini o'zlashtirish; o'quvchilarning o'tilgan materialni o'zlashtirishini nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilishni tashkil etishda mobil texnologiyalarini qo'llay olish; o'qitishning mobil va an'anaviy texnologiyalarini muqobil tarzda uyg'unlashtira olish; o'quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishda mobil texnologiyalarini qo'llay olish; elektron

platformalar, mobil ilovalardan foydalanib yangi bilimlarni o'zlashtira olish va qo'llay olishi.

Raqamli ta'lim sharoitida kasbiy ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini tushunish zarurati tug'ildi. Buning o'ziga xosligini quyidagilarda ko'rish mumkin: axborotga asoslangan ta'lim o'rniga tadqiqot yondashuviga asoslangan "bilimlar yaratish" sifatida o'qitish; o'qituvchiga qat'iy yo'naltirilgan o'qitish metodi o'rniga bilimlar tizimini yaratish bo'yicha o'qituvchi va talabaning birgalikdagi faoliyati; "balki, kelajakda kerak bo'lib qolishi mumkin, har ehtimolga qarshi" kayfiyatidagi o'qitish metodi o'rniga aynan o'z paytida va dolzarb o'qitish metodikasi; favqulodda rasmiy ta'lim o'rniga turli xil ta'lim metodikasidan foydalanish; ko'rsatmalarga tayanib o'qitish o'rniga, shaxsiy maqsad va tajribalarni hisobga olgan holda, tashabbus bilan o'rganish; muayyan yosh davriga kelib ta'limni yakunlanishini belgilash o'rniga uzluksiz ta'limni tashkil etish.

Bularning barchasi ta'lim sohasida sezilarli o'zgarishlarni amalga oshirishga imkon beradigan yangi ta'lim paradigmasini izlashga olib keldi. Talabalarda axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishning ijtimoiy – pedagogik zaruriyatini asoslashda kompetensiyaviy yondashuv alohida paradigma sifatida o'rganildi. Bir qator muloxazalar va ilmiy xulosalar taxlil qilindi.

Kompetensiyaviy yondashuvini tadbiq etilishi quyidagi omillar bilan bog'liq: jahonda fan soxasining integratsiyalashuvi va globallashuvining jahon tendensiyasi; "Rivojlangan mamlakatlar oliy ta'lim tizimi mexanizmini" uyg'unlashtirish zarurati; so'nggi o'n yillikda ta'lim sohasida ro'y bergan o'zgarishlar; "kompetensiyaviy yondashuv" atamasining konseptual mazmunining boyligi; sohaga doir chiqarilgan qarorlar va ajratilgan sarmoyalar.

Ta'lim jarayonini amalga oshirishda kompetensiyaviy yondashuvdan foydalanishning asosiy farqlovchi xususiyati va muhim jihati bilim berish texnologiyalaridan samarali va ijodiy jarayonga yo'naltirilgan faol texnologiyalarga o'tishdir.

Axborot texnologiyalar vositalari bilan ishlash kompetensiyasining kognitiv va operatsion komponentlari (ko'rsatkichlari) tarkibi pedagogika oliy o'quv yurtida axborot kommunikatsion texnologiyalar sohasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarni hisobga olgan holda aniqlandi.

Natijada boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy faoliyatining quyidagi xususiyatlari aniqlandi: o'quvchilarning o'quv faoliyatini shakllantirish; boshlang'ich sinf o'quvchilarining fan sohalariga tegishli bilim va tajribalarni o'zlashtirish tizimini rivojlantirish ustida ishlash; o'quvchilarning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish bo'yicha ishlar olib borish; bolani maktab ta'limiga moslashtirish bo'yicha olib boriladigan ishlar; bolalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish; maktab ichidagi ijtimoiy muhitni rivojlantirish uchun ota-onalar va tashkilotlar bilan ishlash.

M-learning (mobil ta'lim) muhitini shakllantiruvchi turli dasturiy vositalar va masofaviy ta'lim tizimlari ma'lum: SMART ta'lim; Mobil texnologiyalar; Ta'lim platformalar; Elektron ta'lim resursi ba dasturiy ta'minot.

Mobil ilovalarni yaratishda: didaktik talablar axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan shakllangan bo‘lib, modulli ta‘lim, interfaol raqamli muhit, kompetensiyaviy, individualashgan va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarga asoslangan; metodik talablar bo‘yicha multimedia va mobil ta‘lim resurslaridan foydalanish ta‘lim oluvchilarga ta‘lim mazmunini to‘liq o‘zlashtirish imkonini yaratish; psixologik talablar bo‘yicha resurslar har bir o‘quvchining bilim darajasi, til ko‘nikmalari va sensorli qobiliyatlarini (ko‘rish/eshitish qobiliyatlari) hisobga olgan holda ishlab chiqish; texnik talablar raqamli ta‘lim resurslari qurilmalar va platformalardan qat’i nazar barcha foydalanuvchilar uchun qulay, tezkor va xavfsiz bo‘lishi kabi talablarga e‘tibor qaratildi.

Demak, ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili mobil texnologiya vositalari bilan ishlash kompetensiyasi kasbiy faoliyatning maqsadi va natijasi bo‘lib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mobil texnologiyalar vositalari bilan ishlashda axborot kompetensiyalari yig‘indisini izchil egallash orqali shakllantiriladi. Bunda, axborot kommunikatsion texnologiyalar vositalari bilan ishlash kompetensiyasi deganda kasbiy vazifalarni bajarishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan bilim, ko‘nikma va faoliyat tajribasi yig‘indisidir.

Dissertasiyaning ikkinchi bobi **“Mobil texnologiya vositasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi”** deb nomlanib, unda axborot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, mobil texnologiyalar vositasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini axborot kompetentligini rivojlantirish modeli, bo‘lajak o‘qituvchilarning mobil texnologiyalari bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish va amaliyotga joriy qilishning metodik tizimini tadbqiq etish yo‘llari yoritib berilgan.

Hozirgi axborot kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda mobil texnologiyalari soni tobora ortib bormoqda. So‘nggi yillar mobaynida internet global tarmoqqa aylanib ulgurdi. Buning natijasida dunyoda nafaqat axborotlashgan jamiyat yuzaga keldi, balki jahon hamjamiyatida globallashtirish jarayonlari tezlashib ketdi.

Mobil texnologiyalardan foydalanish orqali ta‘lim tizimida quyidagi imkoniyatlar paydo bo‘ladi: yangi muloqot va hamkorlik vositalarini taqdim etish auditoriyadagi o‘qishni auditoriyadan tashqari o‘qish bilan, uyga qaytishda yo‘l davomidagi o‘qish va mashg‘ulotlar oralig‘idagi o‘qish bilan bog‘lash imkonini beradi; uyda ta‘lim olayotgan talabalar uchun ma‘lumot almashish, savollar berish va yangi ko‘nikmalarni mashq qilish imkoniyatini berish; talabalar bilim ishlab chiqaruvchilarga aylanadi: sharhlar, muhokamalar yoki elektron yozuvlar almashinuvi o‘qituvchining an‘anaviy rolini hamkor yoki murabbiyning zamonaviyroq rolga o‘zgartiradi; talabalar o‘rtasidagi bunday muhokama natijalari muhim pedagogik manba bo‘lib, haqiqiy ta‘limga o‘tishni ta‘minlaydi; yozib olish va qayd etish muhitida osonlashtiriladi, bu ta‘limda ishtirok etishning isboti yoki rasmiy va norasmiy ta‘limni uyg‘unlashtirish usuli sifatida ko‘riladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining mobil texnologiya vositalari bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish modelini ishlab chiqish uchun asos bo‘lgan kompetentlik va kontekstual yondashuvlar, ularning g‘oyalari va pedagogik tizim qurilmalari avvalgi bo‘limlarda bayon etilgan.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mobil texnologiya sohasida kasbiy tayyorlashga kompetensiyaga asoslangan va kontekstual yondashuvlarni hisobga olgan holda quyidagi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni kasbiy yo'naltirish tamoyillari bilan to'ldirildi: kompetentli yondashuvga muvofiqlik tamoyili, maqsadli diagnostika tamoyili, kasbiy yo'naltirilganlik tamoyili, uzluksiz interfaol o'zaro bog'liqlik tamoyili, integratsion va klasterli ta'limni uyg'unlashtirish tamoyili.


Ushbu komponentlarni tanlab olinishi uchta etakchi faoliyat turi, ya'ni qo'shimcha kasbiy hamda o'quv-kasbiy faoliyat turlari bilan bog'liq. Ijtimoiy komponent ushbu komponentlar ustiga qurilib, undan ko'zlangan asosiy maqsad mobil texnologiya vositalari bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirishdir. Bilim va mahorat komponentlari boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbiy faoliyatining amaliy-kasbiy mazmunini aks ettiradi. Ijtimoiy komponent haqiqiy kasbiy o'zaro munosabatlarni aks ettiradi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan mulohazalarga asoslanib, biz bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mobil texnologiya vositalari bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirishning metodik tizimini ishlab chiqish bosqichlarini sanab o'tamiz:



**1-rasm. Axborot kompetentlikni rivojlantiruvchi mobil ta'lim resurslarini yaratish jarayoni bosqichlari.**

Quyida, ma'lum bosqichlarga muvofiq, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mobil texnologiya vositalari bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish uchun ishlab chiqilgan modelni yanada rivojlantirish va aniqlashtirish tavsifi berilgan bo'lib, uni kasbiy tayyorgarlik sharoitida amalda foydalanilgan.



2–rasm. Mobil texnologiya vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini axborot kompetentligini rivojlantirish modeli

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni o'z kasbiy faoliyatlarida mobil texnologiyalardan foydalanishga tayyorlash: AKT vositalari bilan ishlash kompetentsiyasiga qo'yiladigan maqsadlar; O'qitish faol metodlar, shakllari va vositalarini tanlanishi; O'qitish faol metodlar, shakllari va vositalarini tanlanishi; shakllanish tizimida kasbiy faoliyatda AKT vositalaridan foydalanishga tayyorlash jarayoni; AKT vositalaridan foydalanish ko'nikmasini nazorat qilish va baholash.

Ta'limiy elektron platforma (mobil ilova)ni yaratishda pedagogik, psixologik, ergonomentrik, o'quv-uslubiy, funktsionallik talablari va o'quv materiallariga metodik talablar muayyan fanning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, tamoyillari, shuningdek, o'quv materialiga texnologik ishlov berish borasidagi mavjud imkoniyatlarining inobatga olinishini nazarda tutadi. Yuqoridagidan kelib chiqqan holda mobil texnologiyalar vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini axborot kompetentligini rivojlantirish bo'yicha bilim, ko'nikmalarni rivojlantirish modeli ko'rsatilgandek quriladi.

Maqsadli blokda model elementlarining tuzilish strukturasi o'rganilayotgan jarayonning asosiy komponenti bo'lgan maqsad – mobil texnologiyalari vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini axborot kompetentligini rivojlantirish bo'yicha bilim, ko'nikmasini rivojlantirishga yo'naltiradi. Ushbu maqsadni amalga oshirish albatta, o'zining me'yoriy-huquqiy asosiga ega bo'lib, me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar doirasida zarur vazifalar amalga oshirib boriladi. Maqsadli blokda ijtimoiy ehtiyoj zaruriyati sifatida belgilangan talab va me'yoriy-huquqiy asoslardan kelib chiqib, o'quvchilarning fanga oid bilim, ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Tashkiliy-texnologik blokda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mobil texnologiyalar bo'yicha bilim, ko'nikmasini rivojlantirish – kompetentli, informasion, tizimli, interaktiv yondashuvlar, amaliyot bilan bog'liqlik, individuallik, moslashuvchanlik, yaxlitlik, tegishlilik tamoyillari asosida amalga oshirish hamda o'quvchilarning axborotlar bilan ishlash, o'zini boshqarish, mobil texnologiyalardan foydalanishga oid bilim, ko'nikmasini rivojlantirish bosqichlari nazarda tutildi.

Prosesual-mazmunli blokda ta'limiy elektron texnologiya (mobil ilova) asosida o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etishda yaratiladigan didaktik shart – sharoitlar, o'quv jarayoni elementlari – nazariy, amaliy, mustaqil, to'garaklarda ta'lim va tarbiyaviy darslar, taqdimotlar., video darslar, animatsiyalar, glossariylar, topshiriqlar (standart va nostandart testlar, amaliy masalalari) o'quv vositalari asosida tashkil etish nazarda tutilgan.

Natija blokida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mobil texnologiyalardan foydalanishga oid bilim, ko'nikmasiga erishish uchun ta'limda baholash mezoni va darajalari muhim komponent sifatida e'tibor qaratilgan hamda birinchi blokda qo'yilgan maqsad ya'ni axborot kompetentlik bo'yicha bilim, ko'nikmasi rivojlanishiga erishiladi.

Ushbu tahlil va ilmiy qarashlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga mobil texnologiyalari vositasida o'ratuvchi elektron muhit yaratishga oid metodik talablar, muammolarni yechish yo'llari aniqlandi, o'qitishning metodik modeli ishlab chiqildi.

Tadqiqot ishining konseptual asoslarini va modelini yoritishda Mobil learning hamda <https://mobil.axborot-resurs.uz/> ta'limiy elektron platforma haqida qisqacha

keltirib o'tilgan. Ushbu platforma bilan ishlashning afzalliklari, bo'lajak o'qituvchilarning axborot kompetentligini rivojlantirishdagi ahamiyati haqida kengroq ma'lumotlar berilgan. Dars jarayonida yoki darsdan tashqari (vebinar, onlayn dars, master-klas, seminar treyning, workshop, konferensiya) xolatlarda ushbu ta'limiy dasturlardan keng foydalanish mumkin.

Mobile learning (mobil ta'lim) – Ta'lim olish uchun mobil texnologiyalar asosiy platformaga aylanmoqda. Mobil ta'lim vositasi hisoblangan mobil texnologiyalar tez sur'atlarda rivojlanishda davom etmoqda, bu esa ta'lim muassasalariga o'quv materiallarini mobil ilova formatida taqdim etish imkonini beradi.

